

ABAY SHE’RIYATINING G’OYAVIY-BADIIY XUSUSIYATLARI

Qurdosh QAHRAMONOV,
filologiya fanlari doktori

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15877746>

Qozoq adabiyotining asoschilaridan biri, atoqli shoir va nosir Abay Ko‘nonbov ijodiy merosi nafaqat qozoq, balki butun qardosh turkiy xalqlar adabiyoti xazinasiga qo‘shilgan ulkan ma‘naviy boylik hisoblanadi.

Shoir yaratgan she‘rlar, qora so‘z deb nomlanuvchi nasihatlar turkumi hamda dostonlari o‘zining ezgulikka chorlovchi yuksak g‘oyaviyligi, badiiy mukammalligi bilan keyingi ijodiy izlanishlar uchun ham muhim omil bo‘lib xizmat qilib kelmoqda. Tadqiqotchilarning qayd etishicha, shoir ijodi uch manbadan oziq olib, ijodiy barqarorlikka erishgan.

“Sinchiklab qaralsa, Abayning ijodi quyidagi uch manbadan suvlanganini ko‘rish mumkin. Bularning birinchisi — xalqning og‘zaki ijodi. Ikkinchisi – Chiqishning Yassaviy, Nizomiy, Hofiz, Sa‘diy, Navoiy, Fuzuliy, Ollayor singari ko‘plab vakillari chiqarmalari. Uchinchisi – rus va u orqali Kunbotish adiblarining adabiy asarlari. Lekin gap shundaki, juda ko‘p o‘qigan va turli tillardagi adabiyot bilan yaxshi tanish bo‘lgan, ulardan jiddiy ta’sirlangan Abay ulkan iste’dodi va badiiyatga jiddiy munosabati sababli o‘zining ijodiy qiyofasini saqlab qola bildi va o‘ziga xos badiiy taqdirga ega bo‘la oldi”¹

Professor Qozoqboy Yo‘ldoshevning ushbu fikrlari umuman olganda, to‘g‘ri bo‘lsa-da, biroq barcha ijodkorlar ijodi ham shu uch muhim buloqdan suv ichishini inobatga oladigan bo‘lsak, Abay ijodiga, ayniqsa she‘riyatiga ko‘proq ko‘p ming yillik turkiy xalqlar folklori asosiy manba bo‘lganiga guvoh bo‘lamiz. Zero, shoir she‘riyatining eng muhim jihatlaridan biri uning ma‘rifiy-didaktiy xarakterda bo‘lib, xalqona ruh bilan sug‘orilganida ko‘zga tashlanadi.

Abay she‘riyatining mavzu ko‘lami keng, g‘oyaviy jihatdan ezgulikka yo‘g‘rilgandir. Mehnatsevarlik, ilm-ma‘rifatga chorlov, yuksak millatparvarlik tuyg‘ulari shoir she‘riyatining yetakchi g‘oyaviy motivlarini tashkil etadi. Shoir insoniy kechinmalarni g‘oyat samimiy, xalqona ruhda tasvirlaydi. Ma‘rifiy-didaktik tarbiya ijodining asosiy xususiyatiga aylangan. Shoir she‘riyatining aksariyati mazmunan bir-biriga qarama-qarshi bo‘lgan ikki qutbdan – insonning yaxshi, ezgu amallarining ma‘rifatsizlik, ilmsizlik, nodonlik kabi illatlariga qarshi kurashidan tashkil topganini kuzatamiz.

¹ Қозоқбой Йўлдош. Кўркем сўз қудрати. Абай ижоди ва илмий меросини ўрганиш масалалари. Республика илмий-амалий конференция материаллари. Т. 2020.-Б.8.

“TURKIY XALQLAR ADABIYOTIGA DOIR ZAMONAVIY YONDASHUVLAR: MUAMMOLAR, OMILLAR, YECHIMLAR”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari

Shoir she’rlarida insoniy xislatlar – mardlik, halollik, mehnatsevarlik, fahm-farosat kabi xislatlar yomonlik, nodonlik, harom-harishlikka, boqimandilikka, hissizlikka qarama-qarshi qo‘yib tasvirlanadi.

“Odamzod tiriklikni davlat bilsin / Aql topsin, mol topsin. halol yursin” tamoyilini o‘ziga shior deb bilan shoir yomonlikni, o‘g‘irlik va bekorchilikni qoralaydi, ezgulikni ulug‘laydi.

Yomonlar qilolmaydi halol emgak,
G‘arlik, o‘g‘irlik qilib kular toza,
Harom ishdan yomonlik ko‘rmas.
Ming kun sinmas, bir kun sinar ko‘za.²

Nodonlar bo‘sh so‘zlarga quloq solar,
Chin so‘zning foydasidan chetda qolar.
Rost so‘zning hech bilmaydi xosiyatin,
Chinni qo‘yib, yo‘q so‘zdan lazzat olar,
Yoki

Aqillik qora qilni qirqqa bo‘lar.
Har narsaga o‘ziday baho berar.
Nodon kishi hech narsa bilmay turib,
Maqtanib, ko‘cha-kuyda ko‘krak kerar.(21 bet)

Ko‘rinib turibdiki, shoir ushbu misralarda yaxshilik bilan yomonlikni, rostgo‘ylik bilan yolg‘onni, aqllilik bilan nodonlikni qarshilantirish orqali muhim hayotiy xulosalarni ilgari surmoqda. Muhimi, bu g‘oyalar yalang‘och shaklda emas, balki obrazli tarzda, xalq maqollari, hikmatlari bilan ziynatlangan holda ifoda etilmoqda.

Abay ijodida xalq orasida sayqallanib, hikmatga teng mazmunli she’rlar ko‘p uchraydi. Bu she’rlar quyma shaklda asrlar davomida hayot sinovidan o‘tgan haqiqatlarni ifoda etadi.

Do‘st deydi: bermasang o‘zingdan ko‘r,
Yo‘q desang, tilingdan, so‘zingdan ko‘r;
Erta yovlarning qatorida
Meni ham ilg‘asang – ko‘zingdan ko‘r.(23 –bet)

Bu o‘rinda o‘zingdan, so‘zingdan, ko‘zingdan ifodalari shunchaki qofiya uchun qo‘llangan so‘zlar emas, balki inson tiynatining eng muhim jihatlarini, o‘zlikni xarakterlovchi xislatlar – har neki topgaysan o‘zingdandir, nima eksang shuni o‘rasan

² Абай. Сайланма.-Т.: 2018. –Б.21. (Кейинги кўчирмалар саҳифаси кавс ичида кўрсатилади).

yoki qilmish – qidirmish kabi maqollarning o‘ziga xos obrazli ifodasi sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Shoirning turkum she’rlarida yurt, millat fojiasi g‘oyat keskin misralarda fosh etiladi. Qozoq millatining kelajagi, yurt sha’ni haqida yozar ekan, millat mayda manfaatlarning quliga aylanib, maishatdan bosh ko‘tarmay, qorin bandasiga aylanib qolayotganidan, biylik uchun talashib bir-biri bilan dovlashib, bir maqsadga birlashmay yashayotgan elatlarning kirdikorlaridan afsus-namomat chekadi.

Qozog‘im, sho‘rlik yurtim, vayron yurtim!
Qorongida yo‘l topolmay, hayron yurtim!
Yomon bilan yaxshini farq qilolmay,
Og‘zida ham qon, ham moy, sarson yurtim!

Elat bilan elat yov biylik uchun,
Og‘a bilan ini yov siylik uchun,
Qozog‘im, o‘z-o‘zingni o‘nglamasang,
Badbaxt kunga qolmasmi taqdir butun? (25-bet)

Abay she’riyatining bir turkumini o‘lan haqidagi qarashlari tashkil etadi. O‘lan qozoq she’riyatida o‘zbek folloridagidan farqli ravishda, alohida she’riy janr sifatida e’tirof etiladi. Adabiyotshunos Z.Qabdalovning “So‘z san’ati” nomli kitobida o‘langa “O‘lan - kichik ko‘lamli badiiy asar. Ohang va kofiyasi bir qolipga tushgan, band va turoqlari muayyan tartibda takrorlanib keluvchi obrazli she’r shakli”,³ deb ta’rif beriladi.

Ko‘rinib turibdiki, o‘lan qozoq she’riyatida barmoq vaznidagi she’riy janrlardan biri sifatida ta’riflanayapdi. O‘zbek adabiyotida o‘lan deb xalq og‘zaki ijodidagi aytishuvlar nazarda tutiladi. Shoirning “Men o‘lanni yozmayman ermak uchun” deb boshlanuvchi she’rida o‘lanning poetik kudrati, tarbiyaviy ahamiyati hamda janr sifatidagi o‘ziga xos xususiyatlarini bayon etadi. “Men o‘lanni yozmayman ermak uchun / O‘tkan-ketgan gaplarni termak uchun”ni o‘z ijodiy prinsipiga aylantirgan shoir o‘lan uni his qilgan, tushungan odamga ulkan hayotiy saboq ekanini uqtiradi.

Adabiyotshunos olim Q.Yo‘ldoshev o‘zining Abay ijodiga bag‘ishlangan “Ko‘rkam so‘z qudrati” nomli maqolasida shoirning she’riyatining badiiyati, so‘z qo‘llash mahorati haqida quyidagilarni yozadi:

“Abay so‘z ko‘magida badiiy mo‘jizalar yaratguvchi sehrgar ijodkor edi. Shoir so‘zning qudratiga, uning estetik va ma’naviy imkoniyatlariga katta ishonch bilan qarar edi. Shuning uchun ham u ko‘rkam so‘z, ayniqsa, she’r zimmasida ulkan ma’naviy vazifa bor deb bilardi. Shoirning she’rlaridan birining “**O‘lan – so‘zning**

³ Кабдалов З. Сўз санъати . Алматы, санат, 2007.-Б. 248.

“TURKIY XALQLAR ADABIYOTIGA DOIR ZAMONAVIY YONDASHUVLAR: MUAMMOLAR, OMILLAR, YECHIMLAR”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari

podshosi, so‘z sarasi” deb boshlanishi ham bejizga emas. Shoir o‘lanning “engil” aytilib, “yurakka iliq tegishi”, ya’ni tinglovchiga hissiy ta’sir ko‘rsatishiga alohida e’tibor qaratadi.”(O’sha manba, 14 bet) Shoir o‘z zamondoshiga nasihat qilar ekan, o‘lan alifbesidan quyidagigicha dars beradi:

Men o‘landa afsona kuylamadim,
Oltindan quyma qizni o‘ylamadim.
Keksalarga hech o‘lim tilamadim,
Yoshlarga yomon bo‘l, deb so‘ylamadim.
Jirkanmayin, so‘z aslini mendan so‘ra,
So‘zimning tegi teran, payqab qara. (63 bet).

Shoir suhbatdoshini so‘zning asl mohiyatini anglashga chaqiradi, undan hayotiy xulosalar chiqarishga undaydi va o‘z nasihatlarini quyidagicha she’riy tizmaga soladi.

Ota bilan olishgan odam emas...
Sargardon ham sayyohlar hech kam emas.
Vatansiz, nodon, molsiz yetib-ortar,
Xotinboz, qupruq savlat,sir ham emas,
Qozoqda bangilar ham chiqib qoldi,
Behunar hangilar ham chiqib qoldi.(63 bet).

Shoir she’rda sayoz, tuzsiz o‘lanlar ham yozilayotganidan ozorlanib, ular hayotiylikdan, badiiylikdan xoli, yolg‘ondan iborat so‘zlar tizmasi sifatida baholanadi. Oqinlarga qarata, “Asl so‘z, saylab so‘yla yosh insonga”, deya haqiqiy ma’nodagi o‘lanlar kuylanishini talab qiladi.

Shoir she’rlarida o‘lanning tarbiyaviy ahamiyatiga ham katta e’tibor qaratiladi. Insonlarning hayotdagi quvonchli onlari ham, qayg‘ulari ham asrlar davomida so‘z orqali ifodalanib kelingani, odamlar so‘zdan malham izlashlari ta’kidlanar ekan, o‘lan tug‘ilgandan to qabrga qirguncha doimiy hamroh ekanini ta’kidlaydi.

Tug‘ilganda dunyoni ochar o‘lan,
O‘lan bilan yer qo‘yniga kirar tanang.(53 bet)

Shoir qorni to‘q nodonlarning so‘z mohiyatini uqmasligini fosh etib, “So‘zni uqar ko‘kragi bo‘lsa ko‘zli”, deya obrazli tarzda insonning qalb ko‘ziga ishora qiladi. So‘zni bebaho deb bilish, uni moddiy manfaat ko‘rish vositasiga aylantirishdek nojoiz harakatlardan tiyilishga chaqiradi. O‘ziga zamondan jirchilarning nomlarini keltirib she’r yozar ekan, o‘g‘li Maqsuddan umidi katta ekanini iddao etadi:

Maqsudim til rivoji, hunar sochmoq,

Nodonning ham ko‘zin, ham ko‘nglin osmoq, (54-bet) deya Maqsud so‘zini ikki ma’noda, ham farzandining ismi, ham maqsad, orzu-umid ma’nolarida qo‘llab, o‘z orzu-niyatlarini ifoda etadi.

"TURKIY XALQLAR ADABIYOTIGA DOIR ZAMONAVIY YONDASHUVLAR: MUAMMOLAR, OMILLAR, YECHIMLAR"

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari

O‘lanni “So‘zlarning podshosi” deb bilgan shoir so‘zning nafisligiga, tilga yengillik, yuraklarga iliqlik olib kiradigan, shakl va mazmuni (“silliqlik kelsin aylanasi”) mukammal bo‘lishi lozimligini tasvirlaydi. Aksincha, sayqallanmasdan, to‘g‘ri kelgan so‘zlardan pala-partish foydalanish oqinning bilimsizligidan dalolat, deb hisoblaydi. Shuningdek, o‘landa ham xuddi mumtoz janrlardagi kabi so‘z avvali hadis-u oyatlar bilan ziynatlanishi, hikmatlar bilan boyitilishi lozimligi uqtiriladi. Payg‘ambarimiz (a.s) ham so‘zini o‘lan qilib aytgani ta’kidlanar ekan, quyidagilarni yozadi:

O‘landek xutbe o‘qir keksa mullo,
O‘lan aytib yig‘lagan valiyullo,
Hamma ham chamasicha o‘lan o‘qir,
O‘lan bilan yozilgan kalimullo.(50 bet)

Mana shunday tarixiy ahamiyatga ega bo‘lgan o‘lanni so‘nggi paytlarda mol-mulk, nafs bandasiga aylantirishdek urinishlarni shoir ayovsiz fosh qiladi, qo‘lida qo‘biz-u do‘mbirasi bor oqinlar hammaga maqtoov aytib ta’magirlik qilishlarini qattiq qoralaydi.

Mol uchun so‘zni bezar, vijdon sotar,
Mol uchun bo‘yin egar, molday yotar...
...O‘lanning qadri ketdi el ichida,
Qadrin ketgazganlar yo‘qolmayapdi...(51).

Yuqoridagi kuzatishlardan ma‘lum bo‘layotirki, shoir o‘lan haqidagi turkum she‘rlarida o‘zining ieod haqidagi estetik prinsiplarini bayon etib, badiiyat qirralari, so‘z nafosati va ijodkor shaxs mas‘uliyati haqidagi qarashlarini bayon etmoqda. Bu qarashlar shoir ijodining barcha yo‘nalishdariga birday daxldordir.

Xulosa qilib aytganda, buyuk shoir Abay yaratgan asarlar nafaqt qozoq xalqi ma‘naviy mulki sifatida, balki barcha qardosh turkiy xalqlar ma‘naviyati yuksalishiga daxldor bo‘lgan so‘z durdonalaridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Махбуба Қадамбоевна Ўразбаева. АЁЛ ХАРАКТЕРИНИ ОЧИШДА БАДИИЙ НУТҚНИНГ ЎРНИ. GOLDEN BRAIN. RAIN ISSN: 2181-41 20. 23.01.10. 193-199- 6. <https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/1179>
2. Burxanova, Feruza. "Nazar Eshonqulning ilm-ma‘rifat, kitobxonlikka doir qarashlari." *Konferensiyalar/ Conferences*. Vol. 1. No. 12. 2024.
3. RAJABOVA, Hulkar. "Qissada ekzistensial qahramon va uning jonzodlar bilan yashash motivi (Shuhrat Matkarimning “Maqar” qissasi misolida)." «*ACTA NUUZ*» 1.1.2. 1 (2025): 318-320.
4. Omanova, M. A. (2020). Updating views on literary heroes and glory in the novels of the period of independence. *Novateur publications JournalNX-A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal*, 6(10), 415-419.
5. Abdujamilovna, Kalandarova Dilafruz. "Attitude to uzbek folklore in the research of karl reichl." *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal* 11.5 (2021): 500-503.
6. Kadirova M.N., Innovative methods for improving the methodology of teaching folklore in literature lessons. *AmericanAcademicpublishers*, volume05, issue05, 2025. [INNOVATIVE METHODS FOR IMPROVING THE METHODOLOGY OF TEACHING FOLKLORE IN LITERATURE LESSONS | International journal of artificial intelligence](#)